


## Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-aprel)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
sanoat ishlab chiqarish hajmi,  
mlrd. so'm, o'zgarish sur'ati, % da



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalaridan 2,8 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 102,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 83,7 % ni tashkil etdi.

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining - 4,5 martaga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 2,6 martaga o'sishi xizmat qildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida -6,3 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 11,1 % ga pasayish kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 2020-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 53,3 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining hajmining 1,9 % ini tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoat


2020 yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2369,7 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,7 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi  
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 2,9 % ni (2019-yil yanvar-aprel oylarida - 4,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,4 % (6,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 8,6 % (10,0 %) va quyi texnologiyalisi - 83,1 % (79,7 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 43,1 % (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 23,5 % (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,4 %), mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 7,2 % (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 79,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 0,3 % (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 24,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 1,3 % (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 72,7 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi

Tarmoqlar nomi	Mahsulot hajmi, mlrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
<b>Ishlab chiqaradigan sanoat</b>	<b>2369,7</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	547,4	23,1
Ichimliklar ishlab chiqarish	118,5	5,0
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	947,5	40,0
Kiyim ishlab chiqarish	241,7	10,2
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	29,7	1,3
Yog`och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	5,4	0,2
Qog`oz va qog`oz mahsulotlari ishlab chiqarish	7,2	0,3
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,3	0,0
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	2,3	0,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	14,8	0,6
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	66,9	2,8
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	23,8	1,0
Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	77,9	3,3
Metallurgiya sanoati	8,2	0,3
Mashina va uskunalardna tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	91,5	3,9
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	0,8	0,1
Elektr uskunarlar ishlab chiqarish	93,6	3,9
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunarlar ishlab chiqarish	9,0	0,4
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	4,9	0,2
Boshqa transport uchkunalarini ishlab chiqarish	4,8	0,2
Mebel ishlab chiqarish	24,5	1,0
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	47,7	2,0
Mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish	1,3	0,1

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati




2020-yilning yanvar-aprel oylari davomida viloyatda ishlab chiqaradigan sanoatda 23,3 ming tonna paxta tolasi (2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 70,3 % ga o'sgan), 51,9 ming tonna un (27,0 %), 8,1 ming tonna o'simlik yog'i (tozalangan) (52,7 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprel	2020-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming tonna	13,7	23,3	9,6
Aroq – ming litr 100 % spirt	141,6	133,5	-8,3
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	29,2	15,1	-14,1
Vino, ming litr	517,0	236,1	-280,9
Un, ming tonna	40,9	51,9	11,0
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	5,3	8,1	2,8

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash  
va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 383,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,5 % ini) tashkil etdi.


2020-yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,6 martaga oshganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni  
konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari  
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprel	2020-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, <i>mln.kVt/s</i>		1 456,4	1456,4
Issiqlik energiyasi, <i>ming gkal</i>	35,7	43,8	8,1

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish  
va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini  
tomondan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprel	2020-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	13,0	14,0	1,0
Oqava suvlarni shلامي, mlrd.so'm	1,4	1,5	0,1
Shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	5,7	7,0	1,3
Xavfsiz metall chiqindilari, ming.t	2,3		-2,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 8,0 % ga, oqava suvlarni shlami 4,4 % ga hamda shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 23,6 % ga oshganligi kuzatildi.



### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1286,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 4,9 % ga kamaygan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 45,4 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 0,4 % (2019-yil yanvar-aprel oylarida 0,5 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shaharga to'g'ri kelib, 37,0 % ni, shuningdek, Namangan tumani 16,3 % ni, Uchqo'rg'on tumani 9,6 % ni, To'raqo'rg'on tumani 7,3 % ni hamda Kosonsoy tumani 6,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (95,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich To'raqo'rg'on (123,0 %), Norin (118,3 %), Yangiqo'rg'on (115,7 %), Uchqo'rg'on (114,0 %), Pop (113,1), Kosonsoy (112,8 %), Chortoq (108,1%), Mingbuloq (107,1), hamda Namangan (104,9%) tumanlarida qayd etildi.





**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
(2020-yilning yanvar-aprel oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da
<b>Viloyat jami</b>	<b>1286,0</b>	<b>100,0</b>	<b>95,1</b>
Namangan shahar	475,6	37,0	81,5
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	21,2	1,6	107,1
Kosonsoy	78,5	6,1	112,8
Namangan t	209,5	16,3	104,9
Norin	24,3	1,9	118,3
Pop	77,7	6,0	113,1
To'raqo'rg'on	93,7	7,3	123,0
Uychi	69,5	5,4	82,1
Uchqo'rg'on	123	9,6	114,0
Chortoq	35,1	2,7	108,1
Chust	50,4	3,9	76,0
Yangiqo'rg'on	27,7	2,2	115,7



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan  
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 834,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 29,5 % ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

	2020-yil yanvar-aprel <i>mlrd. so'm</i>	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Viloyat jami</b>	<b>2831,0</b>	<b>102,7</b>
Namangan shahar	888,7	98,9
Mingbuloq	111,7	107,2
Kosonsoy	80,1	101,3
Namangan t	299,1	111,0
Norin	148,3	119,0
Pop	157,5	104,3
To'raqo'rg'on	432,0	117,8
Uychi	228,7	103,7
Uchqo'rg'on	304,0	123,7
Chortoq	40,2	102,9
Chust	112,1	108,2
Yangiqo'rg'on	28,6	96,5

## Viloyat ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da




Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 31,4 % ulushini), To'raqo'rg'on (15,3 %), Uchqo'rg'on (10,7 %), Namangan (10,6 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng kam ulush Yangiqo'rg'on (1,0 %), Chortoq (1,4 %), Kosonsoy (2,8 %), Mingbuloq (3,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, Uchqo'rg'on (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 123,7 %), Norin (119,0 %), To'raqo'rg'on (117,8 %), Namangan tumani (111,0 %) hamda Chust (108,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.


Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi  
(2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da)



### Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati

(2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da)


Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati indeksi  
(2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da)



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish To'raqo'rg'on (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 123,0 %), Norin (118,3 %), Yangiqo'rg'on (115,7 %), Uchqo'rg'on (114,0 %), Pop (113,1 %), Kosonsoy (112,8 %), Chortoq (108,1 %), Mingbuloq (107,1 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

Viloyatda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmning 37,0 % ulushini), Namangan (16,3 %), Uchqo'rg'on (9,6 %), To'raqo'rg'on (7,3 %), Kosonsoy tumani (6,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng kam ulush Mingbuloq (1,6 %) Norin (1,9 %), Yangiqo'rg'on (2,2 %), Chortoq (2,7 %), tumanlariga to'g'ri keladi.



### Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish (2020-yil yanvar-aprel oylarida, ming so'm)

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili To'raqo'rg'on tumani (1913,1 ming so'm), Uchqo'rg'on tumani (1769,5 ming so'm), Namangan tumani (1671,1 ming so'm), Namangan shahrida (1416,1 ming so'm), va Uychi (1075,2 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1005,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Bu borada eng past ko'rsatkich Yangiqo'rg'on (131,6 ming so'm), Chortoq (202,1 ming so'm), Kosonsoy (383,2 ming so'm), Chust (422,6 ming so'm) va Pop (718,2 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
<b>Viloyat jami</b>	<b>1005,2</b>	<b>456,6</b>
Namangan shahar	1416,1	757,6
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	886,5	167,9
Kosonsoy	383,2	375,9
Namangan t	1671,1	1170,1
Norin	906,4	148,6
Pop	718,2	354,3
To'raqo'rg'on	1913,1	414,8
Uychi	1075,2	326,5
Uchqo'rg'on	1769,5	715,9
Chortoq	202,1	176,7
Chust	422,6	190,1
Yangiqo'rg'on	131,6	127,3


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 456,6 ming so'm bo'lgani holda Namangan tumanida 1170,1 ming so'mni, Namangan shahrida 757,6 ming so'mni, Uchqo'rg'on tumanida 715,9 ming so'mni, tashkil etdi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi buyicha eng past ko'rsatkich esa Yangiqo'rg'on (127,3 ming so'm), Norin (148,6 ming so'm), Mingbuloq (167,9 ming so'm), Chortoq (176,7 ming so'm) va Chust (190,1 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi  
(2020-yil yanvar-aprel oylarida, % da)**

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1000,7 mlrd.so'mni va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 35,3 % tashkil etmoqda.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiyo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (97,8 %), va Chust (57,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, eng kichkina ulush To'raqo'rg'on (11,2), Uchqo'rg'on (12,8), Norin (13,8 %), Mingbuloq (19,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



**Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2020-yil 1-may holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 5637 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2340 tasi Namangan shahrida, 423 tasi Namangan, 420 tasi Uychi, 414 tasi Chust, 370 tasi Kosonsoy, 368 tasi To'raqo'rg'on, 254 tasi Norin, 250 tasi Uchqo'rg'on, 228 tasi Yangiqo'rg'on, 223 tasi Chortoq, 218 tasi Pop, va 129 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.



2020-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 414 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 58,2 % Namangan shahri, Uychi, Namangan va To'raqo'rg'on tumanlariga to'g'ri keladi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (69) 227-84-80